

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FANLARI ALOQADORLIGINI O‘RNATISHDA
INTEGRATIV YONDASHUV IMKONIYATLARI.****Kabirova Zarina Farhod qizi***Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti talabasi**4-kurs PRIE-72U*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada , bugungi globallashuv davrida ta‘lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish haqida va fanlar o‘rtasida integrativ yondashuvni o‘rnatishning samarali usullarini ko‘rib chiqamiz .*

Аннотация: *В данной статье мы рассмотрим установление междисциплинарных связей в образовательном процессе в современную эпоху глобализации и эффективные методы установления интегративного подхода между дисциплинами .*

Abstract: *In this article we will consider the establishment of interdisciplinary connections in the educational process in the modern era of globalization and effective methods for establishing an integrative approach between disciplines.*

Kalit so‘zlar: *Integratsiyalash , ta‘lim jarayoni , dars ishlanmalari , fanlararo darslar , butun , aloqadorlik , didaktik asos .*

Ключевые слова: *Интеграция , образовательный процесс , разработка урока , межпредметные уроки , целое , актуальность , дидактическая основа .*

Key words: *Integration, educational process, lesson development, interdisciplinary lessons, whole, relevance, didactic basis.*

Zamonaviy ta‘lim tizimida fanlararo aloqadorlikni ta‘minlash , bilimlarni bir butunlikda o‘quvchilarga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi . Boshlang‘ich ta‘limda bu masala yanada dolzarb , chunki aynan shu davrda bolalarda bilim olishga qiziqish uyg‘onadi , tafakkur shakllanadi va kelajakdagi o‘quv faoliyatining poydevori yaratiladi bu poydevorning mustahkam bo‘lishi esa bizning ,ya‘ni pedagoglarning qo‘lidadir . Bugungi kunda alohida fanlarni bir-biridan uzib o‘qitishning samarasi pastligi ko‘plab olimlar tomonidan ta‘kidlanmoqda va ilmiy izlanishlar orqali ham isbotlanib kelmoqda ¹. Masalan , ona tili darsida o‘rganilgan matnni tabiatshunoslikdagi hodisalar bilan bog‘lamaslik yoki matematika darsidagi amallarni texnologiya darsida qo‘llamaslik bilimlarning

¹ Q.Mahmudov , A.Qodirov “ Pedagogika.” – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2010.

parchalanishiga olib keladi ². Natijada o‘quvchi olgan ma’lumotlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga qiynaladi va eslab qo‘lishida qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda . Shu bois , boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘zaro aloqadorlik asosida o‘qitish bugungi kunda dolzarb muammo sifatida qaralmoqda . Integrativ yondashuv nafaqat bilimlarni yaxlit holda berishga , balki o‘quvchida ijodkorlik , tahliliy va tanqidiy fikrlash va hayotiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi .

Integratsiya lotincha “*integer*” — “butun” so‘zidan olingan bo‘lib , ta’lim jarayonida turli fanlarni yagona tizim sifatida o‘qitish metodini bildiradi .³

Pedagogik qarashlarda ham integratsiya masalasi doimo markazda bo‘lib kelgan . Ya.A. Komenskiy ta’limni hayot bilan bog‘lash g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa , L.S. Vygotskiy bilimlarning ijtimoiy hamkorlik orqali egallanishini ta’kidlagan . J. Piaget esa bolalar kognitiv rivojlanishining muayyan bosqichlarida fanlarni izolyatsiyada emas, balki bog‘liq holda o‘qitish samarali ekanini ko‘rsatgan .⁴

Buyuk chex xalqining ma’rifatparvari , pedagog va faylasufi Ya.A.Komenskiy fikricha maktablarda quruq yodlash va diniy bilimlar berish ta’limning samaradorligini pasaytirishga olib keladi deb ta’kidlagan . Komenskiy nazariyasiga ko‘ra ta’limni hayot bilan bog‘lash zarur . U ta’lim:

- insonni hayotga tayyorlashi ,
- bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashi ,
- o‘quvchining kundalik ehtiyojlariga xizmat qilishi kerakligini ta’kidladi .

Uning ta’limotiga ko‘ra , bola olgan bilimlari orqali tabiatni tushunishi , jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va amaliy hayotda foyda keltirishi kerak .⁵

Lev Semyonovich Vygotskiy (1896–1934) mashhur rus psixologi bo‘lib , uning “madaniy-tarixiy nazariya”si ta’lim va tarbiya jarayonida katta ta’sir kuchiga ega . U bolalar rivojlanishini faqat biologik omillarga bog‘lab qo‘ymaydi , balki ijtimoiy muhit , ta’lim va tarbiyani hal qiluvchi omil sifatida ko‘radi . Vygotskiy ta’lim jarayonida fanlarni izolyatsiyada emas , balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda o‘qitishni qo‘llab-quvvatlagan . Chunki , uning ta’limotiga binoan:

³ Jumayev M., Mavlonova R.” Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

⁴ J.G’ Yo‘ldoshev , O.Hasanboeva “Pedagogika nazariyasi va tarixi.”– Toshkent: Fan, 2005.

⁵ Ya. A. Komenskiy “Buyuk didaktika”– Moskva: Pedagogika , 1982.

- Bola bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lagandagina ularni o‘ngli ravishda o‘zlashtira oladi .
- Fanlararo aloqadorlik bolaning turli qirralarini (mantiqiy fikrlash, nutq, tasavvur, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashlarni) birgalikda rivojlantiradi .
- Izolyatsiyada o‘qitilgan bilimlar parchalanib ketadi va hayotiy vaziyatlarda qo‘llanishi qiyinlashadi .⁶

Masalan , bola “quyosh” haqida faqat tabiatshunoslikda o‘qisa , uning tushunchasi tor bo‘lib qoladi. Ammo agar bu mavzu adabiyotda (she‘r, matn, topishmoq) , matematikada (hajm, o‘lchov, issiqlik) , tasviriy san’atda (quyosh manzarasi) ham yoritilsa , bola quyoshning turli xususiyatlarini yaxlit tasavvur qiladi .Quyosh haqida bo‘lgan fikri ham kengayadi va o‘quvchiga berilgan bilimlar kengaytiriladi , chunki biz integratsiya yordamida mavzuni har tomonlama yoritib berdik .

Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ham ilgari surgan . Bu bolaning mustaqil bajara oladigan vazifalari bilan kattalar yoki o‘qituvchi yordami bilan bajara oladigan vazifalari orasidagi farqdir. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarga yangi bilimlarni turli kontekstlarda qo‘llash imkonini berib , ularning bu zonani kengaytirishiga yordam beradi ⁷.

Shaxsan meni fikrimcha , Vygotskiy fikrlari bugungi kompetensiyaviy yondashuv g‘oyalari bilan juda yaqin . Hozirgi ta’limda asosiy maqsad — o‘quvchini bilimdon qilish emas , balki bilimlarni hayotda qo‘llay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir , bola olgan bilimlarini quruq yodlab olib , keyinchalik esdan chiqarishi emas balki olgan har bir bilimni hayotida qo‘lay olishi kerak . Shunday ekan , fanlarni integratsiya qilish orqali bolaga faqat “faktlar to‘plami” emas , balki muammolarni yechish , mustaqil qaror qabul qilish , ijodkorlik bilan fikrlash ko‘nikmalari beriladi . Aytish mumkinki , Vygotskiyning integratsiyaga oid qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib , boshlang‘ich ta’limdagi metodik yondashuvlar uchun nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi .

Mulohazamga ko‘ra , boshlang‘ich sinfda fanlararo aloqadorlik maqsadlariga erishish uchun tabiatshunoslik , tarbiya , ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari o‘quv dasturlari , mavzularida didaktik aloqalar izchilligi o‘rnatilishi muhim .

1. O‘quvchilarda xavfli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ko‘nikma va malakalarni egallash , o‘zgaruvchan vaziyatlarga o‘rgatish , faol fuqaro sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topish qobiliyatlarini rivojlantirish.

⁶ L.S.Vygotskiy “Fikrlash va nutq”– Moskva: Pedagogika , 1999.

⁷ Vygotskiy L.S. “Pedagogik psixologiya” – Moskva: Ayris-press, 2001

2. O‘quvchilarga atrof-muhitdagi hodisalar mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan tushuntirish , tavsiflash , qiyoslash , taqqoslash , umumlashtirish , bilimlarni yangi vaziyatga o‘tkazish kabi ijodkorlik sifatlarini shakllantirish . O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish .

3. O‘quvchilarda olamning yaxlit manzarasi haqidagi ma‘lumot va dalillarni ilmiy jihatdan majmuaviy talqin qilish , idrok va tasavvurlarini boyitish , o‘z-o‘zini anglash , mustaqil faoliyatini tashkil etish faoliyatiga yo‘naltirish zarur.⁸

Dars – ta‘lim tashkil etishning asosiy shakli . Darsda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi , barcha o‘quvchilarning sinfda o‘rganiladigan fan asoslarini o‘zlashtirishlari , ularning bilim-qobiliyatlari va madaniy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash va rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratiladi . Fanlar integratsiyasi asosidagi darslarning shakli interfaol , nostandart , mazmunli va juda qiziqarli . Dars davomida turli xil faoliyat turlaridan foydalanish o‘quvchilar diqqatini yuqori darajada ushlab turadi , bu esa darslarning yetarli darajada samaradorligi oshirishga imkon beradi . Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalangan holda darslar muhim pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi , kognitiv qiziqishni sezilarli darajada oshiradi, tasavvur , e‘tibor , fikrlash , nutq va xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi .⁹

Xulosa qilib aytganda , hozirgi kungacha boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha metodik adabiyotlarda ta‘lim jarayonining murakkab , yaxlit hamda fanlararo integratsiyalashgan shakllari va ularning o‘ziga xos jihatlariga oid yagona tizimlashtirilgan ta‘rif berilmaganini inobatga olsak , integratsiyalashgan o‘qitish metodini an‘anaviy yondashuv bilan qiyoslash nihoyatda muhimdir . Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki , fanlararo integratsiyaga asoslangan darslar samaradorlik darajasi jihatidan an‘anaviy ta‘lim metodiga nisbatan yuqoriroq natijalarni beradi . Fanlararo bog‘lanishda tashkil etilgan mashg‘ulotlar nafaqat o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallashini ta‘minlaydi , balki ularning kompetensiyalarini rivojlantiradi , ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi , tafakkurini boyitadi va shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi . Shaxsan menimcha, fanlararo integratsiya boshlang‘ich ta‘limni yangi bosqichga olib chiqadigan kuchli omillardan biridir . Zero , bola bilimni turli sohalar bilan uyg‘unlashtirib o‘zlashtirsa , uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga osonlikcha erishadi . Shu bois , kelgusida boshlang‘ich ta‘lim metodikasida

⁸ Muxtarova L.A. (2017). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.

⁹ N.N.Azizxo‘jayeva “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.” – Toshkent: TDPU, 2006

integrativ yondashuvni yanada takomillashtirish , uni amaliyotda keng tatbiq etish zamon talabi hisoblanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Q.Mahmudov , A.Qodirov “ Pedagogika.” – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2010.
- Ya. A. Komenskiy “Buyuk didaktika”– Moskva: Pedagogika , 1982.
- L.S.Vygotskiy “Fikrlash va nutq”– Moskva: Pedagogika , 1999.
- Vygotskiy L.S. “Pedagogik psixologiya” – Moskva: Ayris-press, 2001.
- J.G’ Yo‘ldoshev , O.Hasanboeva “Pedagogika nazariyasi va tarixi.”– Toshkent: Fan, 2005.
- N.N.Azizxo‘jayeva “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.” – Toshkent: TDPU, 2006.
- Jumayev M., Mavlonova R.” Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
- Muxtarova L.A. (2017). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.